



SUG'D MARKAZIY HOKIMIYATINING HUDUDIIY HOKIMLIKLAR BILAN ALOQALARI

Jizzax ilg'or kasbiy mahorat texnikumi Tarix fani o'qituvchisi

O'rolov Asilbek Absalom o'g'li.

Jizzax ilg'or kasbiy mahorat texnikumi Tarix fani o'qituvchisi

Shukurov Abror Akram o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada V-VII asrlarda Sug'd markaziy hokimiyatining hududiy hokimliklar bilan aloqalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sug'd, Mug' tog'i, Zarafshon vodiysi, Kesh, Turk xoqonligi, Chjao-u, konfederativ davlat, Kan xonadoni, azatlar, Kushoniya, Panjikent, xvabu, Suy shu, Beyshi, Tan shu, Ustrushona, Choch, ixshid, ixrid, buxorxudot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взаимоотношения центральной власти Согда с территориальными владениями в V–VII веках.

Ключевые слова: Согд, гора Муг, Зеравшанская долина, Кеш, Тюркский каганат, Чжао-у, конфедеративное государство, династия Кан, азаты, Кушания, Панджикент, хвабу, Суй шу, Бэйши, Тан шу, Уструшана, Чач, ихшид, ихрид, бухархудат.

Annatation: This article examines the relations between the central authority of Sogdiana and its territorial principalities during the 5th–7th centuries.

Keywords: Sogdiana, Mount Mug, Zarafshan Valley, Kesh, Turkic Khaganate, Zhao-u, confederative state, Kan dynasty, Azats, Kushaniya, Panjikent, Xvabu, Sui Shu, Beishi, Tang Shu, Ustrushana, Chach, Ikhshid, Ikhrid, Bukharkhudat.

Bizga ma'lumki, Sug'dning davlatchilik tarixida tutgan o'rni va ahamiyatiga bevosita qaratilgan maxsus tadqiqotlar nihoyatda kam. Ularning talqin qilish ko'p



hollarda umumnazariy mazmunga asoslanadi. Vaholanki, ilk oʻrta asrlarda Oʻzbekiston hududlarida mahalliy davlatchilik, mustaqil va yarim mustaqil davlat tuzilmalarining mavjud boʻlganligini oʻrganish, eʼtirof etish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur konfederasiya tarkibidagi mustaqil va yarim mustaqil davlat tuzilmalarining shakllanishi taraqqiyoti, Turk xoqonligi hukmronligi davrida mamlakatning ichki va tashqi siyosiy vaziyati, turk-sugʻd munosabatlarining tarixiy mohiyati, Sugʻdning ijtimoiy hayoti va davlatchilik funksiyalari, mahkamachilik tizimi, qonunchilik va ijro, qolaversa, pul-tovar munosabatlaridagi huquqiy asoslar, davlatning oʻrni, soliq tizimlari haqida maʼlumot olish ehtiyoji yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa masalani alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlab olish uchun eng muhim sabablardan biridir.

Mugʻ togʻi sugʻd hujjatlari majmuyi oʻlkaning hayotiga oid maʼmuriy tizimni, devonxona-mahkamachilik ishining usullari va shakllarini, boshqarishdagi tartib va nazorat xususiyatlarini, lavozim egalarining oʻzaro munosabatlarini yoritishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar hujjatlar asosida jamiyatning tarkibiy tuzilishiga diqqat qilishgan. Bu masalada ijtimoiy pogʻonalarning yuqoridan quyigacha ketma-ketligi, tabaqalanishning ichki boʻgʻinlari, erkin aholi va uning kasb-kori, qaram ijtimoiy tabaqalarning tarkibi kabi qator muhim unsurlar haqida bilimlar tizimi, baʼzan bahsli boʻlsa-da, yuzaga keldi¹.

Aytib oʻtish kerakki, ilk oʻrta asr Sugʻd tarixi Oʻzbekiston tarixining ajralmas qismidir. Oʻzbekiston hududida kechgan davlatchilik tarixining rivojlanish bosqichlarida Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari boʻylab, Samarqand, Buxoro, Kesh, Qarshi-Naxshab vohalarida miloddan avvalgi birinchi ming yillik, milodiy birinchi ming yillikning soʻnggi choragiga qadar Sugʻd nomi bilan davlatchilik

¹ Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Вып. II. – М.: Наука, 1962. (Кейинги ўринларда СДГМ II. деб келтилади). Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970. – 288 с.; Мансуров Ў.Н. Суғд ёзма ёдгорликлари манбашунослиги масалалари. Тарих фанлари номзоди... дис. – Тошкент: 2003. – 137 б.



jarayonlari kechganligi, nihoyat bu jarayon milodiy VI asr o'rtalaridan VIII asr o'rtalarigacha Sug'd konfederativ davlat tuzilmasi ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan davlatchiligimiz tarixining muhim bosqichini o'z ichiga olgan Sug'd konfederativ tuzilmasining ichki ijtimoiy-siyosiy masalalarini o'rganishda sug'd yozma yodgorliklarining o'rni beqiyosdir.

O'z vaqtida yozma manbalarda keltirilgan zodagonlarning toifalari (darajalari) yer mulkchiligiga asoslangan rivojlangan mansab, ijtimoiy pog'onaning (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi) mavjudligidan dalolat beradi. Bu tizimning oliy pog'onasini aslzodalar egallaganlar.

Numizmat olim O.I.Smirnova o'zining "Sug'd tarixidan lavhalar" asarida bu toifaga Xitoy yilnomalarida Chjao-u deb nomlangan Markaziy Osiyo hukmron xonadonlarini (sulolalarini) kiritadi². Tadqiqotchi ushbu sulolani arab manbalarida keltirilgan aslzoda toifa - «jamuk» bilan bir deb qaraydi³.

Shu kabi hukmron xonadon namoyandalari qatoriga ixshidlar (podsholar)ning Samarqand sulolasi kelib chiqqan *Kan* xonadoni a'zolari, shuningdek, Buxoro, Xorazm, Kushoniya, Marv va boshqa O'rta Osiyo o'lkalari hukmdorlari kirgan. Zodagonlarning keyingi toifasi yer egalari bo'lib, bulardan so'ng ko'p sonli «azatlar» turgan. Bularning umumiy nomi (*azatkor*-azat xalqi) avvalgilarga ham taalluqli bo'lgan. Tangalarda va sug'd hujjatlarida Sug'd zodagonlari tarkibi haqida keltirilgan unvonlar nafaqat o'lkaning siyosiy tarixini, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini ham yoritib beradi. Sug'd tangalarini kuzatganda VI asr oxiri VII asr boshlarida mahalliy hukmdorlar unvonlari ma'lum bir o'zgarishlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin. Bronza tangalardagi yozuvlarda Sug'd hukmdorining oddiy unvonidan tashqari yana ikkita, boshqa unvonlar paydo bo'ladi. Titulaturada uchta asosiy gradasiya (bir holatdan ikkinchi holatga o'tishdagi izchillik) ko'zga tashlanadi. Oliy darajaga taalluqlisi "podsho" - oramiy

² Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. — М.: Наука, 1970. — 288 с.

³ Смирнова О.И. Каталог монет с городища Пенджикент. — М., 1963. — С. 26.



ideogrammasi bilan berilgan (aslida “hukmdor”) unvondir. Ikkinchisi “hokim” va uchinchisi sug‘dcha “hokim, janob” unvonlaridir.

Ulardan birinchisi vorislik huquqiga ega bo‘lgan Samarqand podshohlarining tangalarida VII asr ikkinchi yarmida, ularga tegishli bo‘lgan umumiy unvon o‘rniga paydo bo‘ldi. Shu davrdan boshlab, yilnomalar va sug‘d hujjatlarida ko‘rsatilishicha ular “podsho” yoki “Sug‘d podshosi” unvoniga ega bo‘ldilar. Bu unvon ulardan keyin, sulola hukmronlik qilgan davr mobaynida saqlanib qoldi.

Keyingisi – “hokim” unvoni Mug‘ hujjatlarining dalolat berishicha aslida Samarqand va Panjikent hukmdorlarining unvoni yoki faxriy nomi bo‘lgan. Uchinchi unvon *xvabu* - O‘rta Osiyoning qadimiy unvonlaridan bo‘lib, tilda ikki ma’noda-ijtimoiy iyerarxiya unvoni va yer egaligi nomi, shu jumladan, odatiy muomalada hurmat ifodasi sifatida amal qilgan.

O‘rta Osiyo hukmron xonadonlari haqidagi ma’lumotlar «Beyshi» («Shimoliy xonadonlar tarixi»), «Suy shu» («Suy sulolasi tarixi») va «Tan shu» («Tan sulolasi tarixi») kabi Xitoy yilnomalarida keltirilgan⁴. Ularning ma’lumot berishicha, bu xonadonlar yuechjilar naslidan kelib chiqqan. Ya’ni Kushonlar sulolasi bilan bevosita aloqador deb hisoblanadi. Ushbu yilnomalarda xabar berilishicha, O‘rta Osiyo hukmron urug‘laridan ba’zilari ko‘p avlodlarni o‘z ichiga olgan. Masalan, Buxoro hukmdorlari sulolasi 22 avloddan iborat bo‘lib, 400 yildan ortiq hukmronlik qilgan (avlodga o‘rtacha hisobda 20 yildan hisoblaganda). Shu manbalarning ma’lumotlariga qaraganda *Kan* (Samarqand) hukmdorining urug‘i eramizning birinchi asriga borib taqaladi. Kan xonadoni alohida avlodining namoyandalari Buxoro, Kushoniya, Ishtixon, Kesh, Naxshab, Ustrushona, Choch, boshqa so‘z bilan aytganda, Zarafshon, Qashqadaryo, Sirdaryoning o‘rta oqimi va uning tarmoqlari (Angren va Chirchiq) bo‘ylab joylashgan rayonlarda hukmronlik qilganlar⁵. Ushbu manbalarga qaraganda, shu xonadonga Xorazm, Farg‘ona va Amudaryodan

⁴ Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... – С. 271; – С. 280-281.

⁵ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений. ... – С. 271, 281, 310.



janubdagi joylarning hukmdorlari ham taalluqli bo'lgan. Birgina Xorazmning afrig' sulolasi o'zini Siyovush bilan bog'lagani sababli Xitoy yilnomalarining ma'lumotlari bilan ziddiyat bordek ko'rinadi.

Xitoy yilnomalarida Sug'd «*Su-li*», Samarqand esa «*Kan*» deb nomlanadi⁶. Xitoy ma'muriy terminologiyasiga qaraganda Kesh va Buxoro ham Suliga qarashli bo'lgan. VIII asr boshlarida Sug'dga Qashqadaryo vohasi ham kirganligi Qutayba bilan G'urak o'rtasida tuzilgan 712 yilgi Samarqand shartnomasida aniq belgilangan. Janubiy Sug'd, ya'ni Qashqadaryo vodiysi tarkibiga o'z navbatida Kesh va Naxshab hukmdorliklari kirgan. Naxshab hukmdori esa Kesh podshosiga bo'ysingan. Sug'diy manbalarda Samarqandda podsho-*ixshid*, Keshda esa hokim-*ixrid*, Buxoroda-*buxorxudot* unvonlari amal qilganini ko'rsatadilar. Bular merosiylikning aniq huquqlari bilan ta'minlangan bo'lib, taxtni shu urug'ga tegishli shaxs egallashi lozim bo'lgan. Lekin tarixda oqsoqollar yig'ini ham podshoni almashtirishi mumkin bo'lgan. Masalan, podsho Tarxun shu yo'l bilan ag'darilgan (710 yil).

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'sha paytda meros otadan o'g'ilga o'tgan. Masalan, Samarqand hukmdori Varxuman o'rniga uning o'g'li, yoki boshqa hukmdor, G'urak o'rniga uning katta o'g'li Turg'ar o'tiradi. VIII asrda Ustrushona afshinlari taxti otadan o'g'ilga o'tganligi ma'lum. Shular bilan bir qatorda taxtni akadan ukaga o'tish hollari ham kuzatiladi. Masalan, Buxoro hukmdori Tug'shoda o'g'li Qutaybadan so'ng, taxtni navbatma-navbat uning uchta ukasi egallagan⁷.

Bu davrda dehqonlar bir butun ijtimoiy qatlamni tashkil etmaganlar. Manbalar ular orasida katta yoki yirik dehqonlar yoki oddiy dehqonlar kabilarni farqlaydi. Tabariy va boshqa mualliflar ulardan eng kuchlilarini-vorislik huquqiga ega dehqonlarni katta dehqonlar - «*azimlar*» deb nomlaydilar. Fors mualliflari ularni

⁶ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений. ... – С.285.

⁷ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. ... – С.56.



«*buzurglar*», ya'ni «*kattalar*», «*buyuklar*» va «*mixtarlar*» - «*kattalar*», deb ataydilar⁸.

Arab manbalarida Devashtich va G'urak dehqon yoki azimlar, deb atalgan bo'lsalar, Mug' tog'i hujjatlarida Sug'd dehqonlari - *ixshidlar* va *xutavlar* deb nomlanganlar. Mug' hujjatlarida faqatgina ulardan birinchilari xvatavlar eslatib o'tiladi. Bu haqda V-17 hujjatida, ya'ni Panjikent hokimi Devashtichning Xaxsar xvabusiga qandaydir ishonchga noloyiq va jur'atsiz ittifoqchilar, xvatavlar haqida yozgan xatida gap boradi⁹.

Ko'rinib turibdiki, Sug'd markaziy podsholigi va unga tobe mulklar o'rtasidagi aloqalar arablar bosqini arafasida anchayin rivojlangan bo'lib, bunda Samarqand peshqadamlik qilgan.

⁸ Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – М: ГРВЛ, 1972. – 657 с.

⁹ СДГМ II. –С. 123-124.